

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA SUJET VA KOMPOZITSIYANING G‘OYAVIY BIRLIGINI TA’MINLASHDAGI ROLI

Turabekova Laylo Shavkat qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti, Sharq tillari fakulteti,

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2- bosqich talabasi.

G-mail: turabekovalayloshavkatovna@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida sujet va kompozitsiyaning g‘oyaviy birlikni ta‘minlashdagi roli tahlil qilinadi. Asardagi voqealar tizimi, Iskandar obrazi, falsafiy mushohadalar hamda hikoyatlarning kompozitsion vazifasi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot davomida sujet rivoji va kompozitsion qurilishning komil inson, adolat, ilm-ma‘rifat kabi g‘oyalarni ochib berishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, dostonidagi poetik vositalar va obrazlar tizimining badiiy yaxlitlikni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Saddi Iskandariy”, sujet, kompozitsiya, g‘oyaviy birlik, komil inson, poetika, obraz, falsafiy mushohada, Sharq epik adabiyoti.

Аннотация. В данной статье анализируется роль сюжета и композиции в обеспечении идейного единства в дастане Алишера Навои “Садди Искандари”. Система событий в произведении, образ Искандера, философские наблюдения и композиционная функция рассказов освещены на научной основе. В ходе исследования показано значение развития сюжета и композиционного построения в раскрытии таких идей, как совершенный человек, справедливость, наука и просвещение. Также проанализирована роль системы поэтических средств и образов в формировании художественной целостности дастана.

Ключевые слова: Алишер Навои, “Садди Искандари”, сюжет, композиция, идейное единство, совершенный человек, поэтика, образ, философские размышления, восточная эпическая литература.

Abstract. This article analyzes the role of plot and composition in ensuring ideological unity in Alisher Navoi's epic “Saddi Iskandari”. The system of events in the work, the image of Iskandar, philosophical observations and the compositional function of the stories are covered on a scientific basis. During the research, the importance of plot development and compositional construction in revealing ideas such as a perfect person, justice, science and enlightenment was shown. The role of the system of poetic means and images in the poem in the formation of artistic integrity is also analyzed.

Keywords: Alisher Navoi, “Saddi Iskandari”, plot, composition, ideological unity, perfect man, poetics, image, philosophical observation, Eastern epic literature.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk mutafakkir va so‘z san‘atkori Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiy-estetik tafakkurining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Uning “Xamsa” tarkibiga kiruvchi Saddi Iskandariy dostoni nafaqat badiiy mahorat, balki falsafiy, axloqiy va siyosiy qarashlarning mukammal ifodasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda jahongir Iskandar obrazi orqali adolatli podsho, komil inson, ilm-ma‘rifat homiysi hamda xalqparvar hukmdor timsoli yaratilgan bo‘lib, ushbu g‘oyalar sujet va kompozitsiya vositasida yaxlit badiiy tizimga aylantirilgan.

Ma‘lumki, badiiy asarning estetik ta‘sir kuchi ko‘p jihatdan uning sujet qurilishi va kompozitsion mukammalligiga bog‘liq bo‘ladi. Sujet voqealarning mantiqiy rivojini ta‘minlasi, kompozitsiya esa asarning barcha qismlarini yagona g‘oyaviy markaz atrofida

birlashtiradi. Ayniqsa, mumtoz dostonchilikda sujet va kompozitsiyaning uyg'unligi muallifning badiiy niyatini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Shu jihatdan qaralganda, "Saddi Iskandariy" dostoni o'zining murakkab voqealar tizimi, ramziy obrazlari, falsafiy mushohadalari hamda didaktik ruhdagi kompozitsion qurilishi bilan alohida ilmiy tahlilni talab etadi.

Dostonda Iskandarning safarlari, turli mamlakatlarga qilgan yurishlari, donishmandlar bilan suhbatlari, adolat va haqiqat yo'lidagi izlanishlari ketma-ket voqealar asosida tasvirlanadi. Biroq ushbu voqealar oddiy sarguzasht xarakteriga ega bo'lmay, muayyan g'oyaviy maqsad — inson kamoloti, adolat va ma'rifat g'oyalarini targ'ib qilishga xizmat qiladi. Asardagi har bir epizod, hikoyat va falsafiy mulohaza kompozitsion jihatdan umumiy mazmun bilan chambarchas bog'langan. Bu esa dostonda sujet va kompozitsiyaning g'oyaviy birligini ta'minlashdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Mumtoz adabiyotshunoslikda Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy ijodidagi Iskandar obrazining talqini yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq "Saddi Iskandariy" dostonida aynan sujet va kompozitsiyaning g'oyaviy yaxlitlikni shakllantirishdagi funksiyasi masalasi hali ham chuqur tadqiq etilishi zarur bo'lgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki asarning badiiy tuzilishini tahlil qilish orqali Navoiyning poetik mahorati, falsafiy-estetik qarashlari va ijodiy individualligi yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiyning Saddi Iskandariy dostoni yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan asarning falsafiy mazmuni, Iskandar obrazi talqini hamda "Xamsa" tarkibidagi o'rnini yoritishga qaratilgan. Biroq sujet va kompozitsiyaning g'oyaviy birlikni ta'minlashdagi roli masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Akademik Izzat Sulton Navoiy dostonlarida voqealar tizimi muallifning axloqiy-falsafiy qarashlarini ochishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.[1] Olimning fikricha, sujetdagi har bir epizod muayyan g'oyaviy vazifani bajaradi. Bu holat "Saddi Iskandariy"da ham yaqqol kuzatiladi.

Naim Karimov "Xamsa" poetikasini tahlil qilar ekan, "Saddi Iskandariy" kompozitsiyasi komil hukmdor konsepsiyasini bosqichma-bosqich ochishga xizmat qilishini qayd etadi.[2] Tadqiqotchining fikricha, dostonning muqaddima, voqealar rivoji va xotima qismlari yagona g'oyaviy tizim asosida qurilgan.

Abduqodir Hayitmetov esa Navoiy epik tafakkurida didaktik-falsafiy yo'nalish ustuvor ekanini ko'rsatadi.[3] Olimning ta'kidlashicha, voqealar ketma-ketligi qahramonning ma'naviy kamolotini ochib berishga xizmat qiladi.

Sharq adabiyotidagi Iskandar obrazi genezisini o'rgangan Bertels Navoiy talqinida Iskandar ilm va adolat timsoli sifatida gavdalantirilganini qayd etadi.[4] Bu esa dostonidagi sujet va kompozitsiyaning yagona ideaviy maqsadga bo'ysundirilganini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, struktur-semantik hamda poetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Saddi Iskandariy dostoni matni o'rganilib, undagi sujet qurilishi, kompozitsion unsurlar, obrazlar tizimi va ularning g'oyaviy funksiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodi hamda "Xamsa" poetikasiga oid adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlari qiyosiy asosda o'rganildi. Tadqiqot davomida asardagi voqealar rivoji, falsafiy mushohadalar va didaktik epizodlarning o'zaro bog'liqligi poetik yaxlitlik nuqtai nazaridan baholandi.

Tahlillar natijalar. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni "Xamsa" tarkibidagi eng murakkab falsafiy-epik asarlardan biri bo'lib, unda sujet va kompozitsiya yagona g'oyaviy tizim asosida shakllantirilgan. Doston markazida Iskandar obrazi turadi va muallif aynan shu obraz orqali adolat, ilm-ma'rifat, komil inson hamda ideal jamiyat haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Asardagi barcha voqealar tizimi va kompozitsion qurilish ushbu g'oyalarni bosqichma-bosqich ochishga xizmat qiladi.

Doston sujetining asosiy xususiyati shundaki, unda voqealar oddiy tarixiy bayon tarzida emas, balki falsafiy-ma'rifiy yo'nalishda rivojlantiriladi. Iskandarning safarlari, turli xalqlar bilan uchrashuvlari, donishmandlar bilan suhbatlari va devor qurilishi bilan bog'liq epizodlar bir-biri bilan ichki mantiq asosida bog'langan. Akademik Izzat Sulton ta'kidlaganidek, Navoiy epik tafakkurida voqealar tizimi "g'oyaning badiiy harakati" sifatida namoyon bo'ladi.[1] Haqiqatan ham, "Saddi Iskandariy"da har bir voqea Iskandarning ma'naviy kamolotini ochishga xizmat qiladi.

Asarda sujetning rivojlanishi Iskandar obrazining takomillashuvi bilan uzviy bog'liq. Doston boshida u qudratli hukmdor sifatida tasvirlansa, keyingi voqealarda ilm va hikmat izlovchi mutafakkir sifatida gavdalanadi. Masalan, Iskandarning donishmandlar bilan qilgan suhbatlari oddiy dialog emas, balki asarning falsafiy markazini tashkil etuvchi kompozitsion vositadir. Bu suhbatlarda adolat, insoniylik, davlat boshqaruvi va ilmning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotchi Abduqodir Hayitmetovning qayd etishicha, Navoiy dostonlarida falsafiy mushohada sujet harakatining ichki asosini tashkil qiladi.[5] Shu bois "Saddi Iskandariy"dagi suhbat va hikoyatlar voqealar rivojidan ajralmagan holda umumiy g'oyaviy yaxlitlikni ta'minlaydi. Doston kompozitsiyasida muqaddima alohida ahamiyatga ega. Navoiy an'anaviy hamd, na't va munajat qismlaridan so'ng asosiy mavzuga o'tadi. Bu kompozitsion kirish qismlari nafaqat diniy-estetik vazifani bajaradi, balki o'quvchini asarning falsafiy ruhiga tayyorlaydi. Naim Karimovning fikricha, "Xamsa" dostonlaridagi muqaddimalar butun asarning ideaviy yo'nalishini belgilovchi poetik markaz vazifasini bajaradi.[2] "Saddi Iskandariy"da ham aynan shu holat kuzatiladi.

Dostonning eng muhim kompozitsion nuqtalaridan biri – Iskandarning Ya'juj va Ma'jujga qarshi devor qurishi bilan bog'liq voqealardir. Ushbu epizod tashqi jihatdan tarixiy-afsonaviy hodisa bo'lib ko'rinsada, aslida chuqur ramziy ma'noga ega. Devor jaholat, zulm va yovuzlikka qarshi ma'naviy to'siq ramzi sifatida talqin qilinadi. Bertelsning ta'kidlashicha, Navoiy Iskandar obrazini Sharq adabiyotidagi an'anaviy

jahongir qahramondan ko‘ra ko‘proq ma‘rifatparvar hukmdor sifatida tasvirlaydi.[4] Shu sababli devor qurilishi epizodi ham oddiy jangovar lavha emas, balki asarning bosh g‘oyasi – insoniyatni yovuzlikdan himoya qilish konsepsiyasini ifodalaydi.

Sujet tarkibidagi hikoyatlar va falsafiy chekinishlar ham kompozitsion yaxlitlikka xizmat qiladi. Navoiy ayrim o‘rinlarda asosiy voqealardan qisqa muddat chekinib, pand-nasihati yoki hikmatli fikrlarni beradi. Bunday usul Sharq mumtoz epikasiga xos bo‘lsa-da, “Saddi Iskandariy”da ular bevosita sujet bilan bog‘langan. Masalan, adolatli podsho haqidagi fikrlar Iskandar faoliyati bilan uyg‘un holda beriladi. Ozod Sharafiddinovning fikricha, Navoiy asarlarida falsafiy umumlashmalar obrazlar harakati orqali tabiiy ravishda yuzaga chiqadi.[6] Bu esa asarda kompozitsion parokandalik emas, aksincha, ideaviy uyg‘unlikni kuchaytiradi. Dostonning xotima qismi ham kompozitsion jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Asar yakunida Iskandarning dunyo foniyligi haqidagi xulosalari orqali muallif inson umrining ma‘naviy mazmuniga urg‘u beradi. Bu holat sujetning ichki mantiqiy rivojiga mos ravishda yakunlanadi. Ya‘ni asar boshida jahongir sifatida namoyon bo‘lgan qahramon oxir-oqibat hayotning haqiqiy mohiyati ilm, adolat va ma‘naviyat ekanini anglaydi. Shu tariqa sujet va kompozitsiya yagona falsafiy xulosaga olib keladi.

Sadriddin Ayniy Navoiy dostonlarini tahlil qilgan ekan, ularda “tarbiyaviy-estetik yaxlitlik” kuchli ekanini alohida qayd etadi.[7] “Saddi Iskandariy”da ham aynan shu xususiyat kuzatiladi. Asardagi barcha epizodlar, dialoglar, ramziy lavhalar va falsafiy mushohadalar bir markaziy g‘oya – komil inson va adolatli jamiyat konsepsiyasiga xizmat qiladi. Shuningdek, dostonda makon va zamon tasvirlari ham kompozitsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Iskandarning turli mamlakatlarga qilgan safarlari orqali muallif turli xalqlarning hayoti, urf-odati va dunyoqarashini ko‘rsatadi. Bu esa asarning badiiy ko‘lamini kengaytirib, sujetning dinamik rivojlanishini ta‘minlaydi. Tadqiqotchi Vohid Abdullayev Navoiy epik tafakkurining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida “voqealarni umuminsoniy g‘oya bilan bog‘lash” tamoyilini ko‘rsatadi.[8] “Saddi Iskandariy”da ham makonlar xilma-xilligi umumiy falsafiy mazmunni boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni sujet va kompozitsiyaning o‘zaro uyg‘unligi asosida qurilgan yuksak badiiy asar hisoblanadi. Dostondagi barcha voqealar tizimi, obrazlar harakati, hikoyatlar va falsafiy mushohadalar yagona g‘oyaviy markaz – komil inson, adolatli jamiyat va ilm-ma‘rifat konsepsiyasiga xizmat qiladi. Navoiy sujet orqali Iskandar obrazining ma‘naviy kamolotini bosqichma-bosqich ochib bergan bo‘lsa, kompozitsiya vositasida ushbu voqealarni yaxlit poetik tizimga birlashtirgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, dostonda voqealar rivoji oddiy sarguzasht xarakteriga ega emas, balki chuqur falsafiy va tarbiyaviy mazmun bilan boyitilgan. Iskandarning safarlari, donishmandlar bilan suhbatlari, xalq va hukmdor munosabatlariga oid epizodlar orqali muallif adolat, ilm va insonparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi. Asardagi kontrast usuli, ramziy obrazlar hamda poetik vositalar sujet va kompozitsiyaning g‘oyaviy yaxlitligini

yanada kuchaytiradi. Demak, “Saddi Iskandariy” dostoni nafaqat Navoiy ijodining, balki butun Sharq mumtoz epik tafakkurining yuksak namunasi sifatida sujet va kompozitsiyaning g‘oyaviy birlikni ta‘minlashdagi muhim rolini yorqin namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1969.
2. Karimov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
3. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. — Toshkent: Fan, 1961.
4. Bertels Ye. E. Navoi i Jami. — Moskva: Nauka, 1965.
5. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. — Toshkent: Fan, 1961.
6. Sharafiddinov O. Navoiyni anglash. — Toshkent: Ma‘naviyat, 1994.
7. Ayniy S. Tanlangan ilmiy asarlar. — Dushanbe: Irfon, 1978.
8. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1980.

